

## **PEDAGOG-KADR KOMPETENSIYASI TA'LIM JARAYONINING SAMARADORLIGINI TA'MINLASH ZARURIYATI SIFATIDA**

**Sultonov Sherzod Elmuratovich**

Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

*Mazkur maqolada talim jarayonining sifat darajasi samaradrligini oshirishda pedagog-kadr kompetensiyasi alohida ahamiyatga egaligiva pedagog-kadrning kasbiy kompetentligining shakllanish bosqichlari, mazmun- mohiyati aks etgan.*

***Kalit so'zlar:** kompetensiya, pedagog-kadr, zamonaviy talab, kasbiy kompetensiya.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В данной статье отражена сущность, этапы формирования профессиональной компетентности педагогических кадров и особое значение компетенции педагога-кадра в повышении эффективности и качества учебного процесса.*

***Ключевые слова:** компетентность, педагог-кадр, современный спрос, профессиональная компетентность.*

### **ABSTRACT**

*This article reflects the essence, stages of the formation of professional competence of teaching staff and the special importance of the competence of the teacher-cadre in improving the efficiency and quality of the educational process.*

***Keywords:** competence, teacher-cadre, modern demand, professional competence.*

### **KIRISH**

Zamonaviy davrda zamonaviy pedagog kadrlarga zamonviy talablarni qo'yilishi davr talabi bo'lib, bugungi kun siyosatida aylangan. Zamonaviy pedagog-kadrga qo'yilayogan zamonaviy talablardan biri bu- uning kompetensiya masalasidir. Pedagog-kadr kompetensiyasi masalasi o'z dolzarbligi bilan ajralib, buungi kun ta'lim jarayonini tashkil qilish va uning samaradorligini ta'minlash vositasiga aylanmoqda. Shuning uchun oliy ta'lim tizimida bo'lajak pedagog -kadrlarning faol va harakatchan, tashabbus ko'rsatib, o'zining professional maqsadlarini aniq anglaydigan, innovatsion tafakkurga ega va ta'limda yangiliklarni amalga oshirishga tayyor o'qituvchi kompetensiyasini shakllantirish va ta'minlash masalasi bosh maqsad sifatida belgilab olingan. Zero, pedagog kadr kompetensiyasi ta'lim va tarbiya jarayonining eng muhim unsurlaridan biri ekanligini targ'ib qilishni zamon

taqozo etmoqda. Garchi kompetentsiya tushunchasi turli soha mutaxassislari faoliyatiga qo'yiladigan zamonaviy talablar majmuiga teng bo'lsada o'zining ijtimoiy mazmuni, tarixiy kelib chiqish va rivojlanish bosqichlariga ham ega. Nazariy ma'lumotlarga ko'ra, kompetentlik tushunchasining ta'lim tizimiga tarixiy jihatdan kirib kelishi va uning ahamiyatining qabul qilinishida quyidagi bosqichlar ajratilgan:

Birinchi bosqich 1960–1970 yillarni o'z ichiga oladi va bu davrda ilmiy doiralar hamda muomalaga «kompetentsiya» va «kompetentlik» tushunchalari kirib keldi, ularning amal qilish qoidalari, qo'llanilish xususiyatlari belgilandi. Birinchi bor «kompetentsiya» atamasi 1965 yilda Massachusetts universiteti o'qituvchisi N.Xomskiy tomonidan ishlatiladi. Bu so'zning semantik chegarasi bugungi kunda juda keng bo'lib, aslida bu so'z «kelishuv», «kelishuvchanlik», «biror bir narsaga mos kelish», «mos bo'lish» ma'nolarini anglatadi. Bugungi kunda mazkur so'z ko'proq «faoliyat olib borishning universal, ya'ni hamma uchun mos bo'lgan umumiy xususiyatlari va talablari majmuini» anglatadi. Mazkur kompetentsiyalar turli mutaxassisliklar doirasidagi dolzrab, yechilishi zarur vazifalarni bajarishga yo'naltiriladi. Naum Xomskiy (inglizchasi), o'zi lingvist olim va psixolog bo'lganligi uchun, «Sintaktik strukturalar» kitobida bu istilohni til borasidagi intuitiv bilim sifatida talqin qiladi. Bu intuitivlik individga ona tilini o'zlashtirishda asos bo'lib xizmat qiladi va to'g'ri jummalarni noto'g'ri jummalardan ajratish imkoniyatini yaratadi. Binobarin, N.Xomskiy tasnifida «kompetentsiya» tilga nisbat berilgan xususiyatlar majmui bo'lib, tilning lingvistik mohiyatini anglash uchun zarur bo'lgan individ xislatlari majmuini anglatadi.

Ikkinchi bosqich 1970–1990 yillarni o'z ichiga oladi va bu davrning 1988 yilida Boloniya universitetning 900 yilligi nishonlash tadbirlarida Yevropaning 80ta universiteti rektorlari Magna Charta Universitarum (Universitetlarning buyuk Xartiyasi) xujjatiga imzo qo'yishadi. Bu hodisa Yevropa ta'lim tizimi tarixidagi «Boloniya jarayoni» deb nomlangan eng yirik loyihaning boshlanishini bo'ladi. Keyinchalik Yevropada yaxlit va hamma uchun teng imkoniyatlar yaratuvchi «Boloniya deklaratsiyasi» 19 iyun 1999 yilda imzolandi va uning maqsadi oliy ta'limning Yevropa mamlakalariaro yagona va yaxlit makonini yaratishdan iborat qilib belgilanadi. Kompetentsiya nuqtai nazaridan esa, Boloniya jarayoni davomida Yevropa mehnat bozorlarida ish beruvchilar tomonidan an'anaviy «bilim» paradigmasi «faoliyat», ya'ni «kompetentsiya» paradigmasi bilan to'ldiriladi, buning natijasida ta'lim modellarida kadr tayyorlashning maqsadi mutaxassisning kvalimetrik talablari miqyosida «kompetentsiya» tushunchasini eng muhim xususiyatlardan biri darajasiga ko'tariladi.

Uchinchi bosqich 1990–2001 yillarni o‘z ichiga oladi va butun dunyo, MHD da, xususan Rossiyada “Boloniya deklaratsiyasi” ijro va ta’lim taraqqiyoti uchun qabul qilinadi, ta’lim islohotlarining maqsadlaridan biri mutaxassisning kvalmetrik ko‘rsatkichlarining bosh xususiyati qilib aynan kasbiy “kompetentlik” masalasi qo‘yila boshlanadi. Bu davrda Rossiyaning qator olimlari, xususan A. K. Markova, Ye. F. Zeera, A. V. Xutorskiy va boshqalar kasbiy kompetentlik tushunchasini psixologiya va pedagogika nuqtai nazaridan ilmiy-nazariy va metodik jihatdan ishlab chiqadilar. Binobarin, “kompetentsiya” so‘zining ilmiy muomalaga kirib kelishi, lingvistik o‘ziga xoslikni belgilashdan boshlanib, iqtisodiy va menejment termiga aylanishi va hozirda barcha pedagogik jarayonlarning bosh maqsadlaridan biri bo‘lib borayotgani bu uning evolyutsion rivojini namoyon etmoqda.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

“Kompetentsiya” so‘zining ilmiy muomalaga kirib kelishi, uning ma’no, mazun va mohiyatlarini ham to‘liq o‘zlashtirib olishni taqozo etadi. Kompetentsiya so‘zi lotin tilidagi «competo», «competentia» so‘zlaridan olingan bo‘lib, erishaman, mos kelaman, loyiq kabi ma’nolarni bildiradi. Mazkur atamaning mazmun-mohiyati esa muvaffaqiyatlilik, natijalilik, yutuqlilik kabi tushunchalar bilan tavsiflanadi. Zero, bugungi kun pedagog kadri nafaqat pedagoglik faoliyatida balki o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetentsiyalarga ega bo‘lishi lozim. Bundan tashqari, ta’limda har bir o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda, shu fanning o‘ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetentsiyalarni ham shakllantira olishiga ham tayyorlanadi. Ta’lim tizimining ta’lim jarayonini sifat samaradorligini ko‘tarilishi albatta pedagog kadrning shaxsiy, kasbiy, maxsus, umum-madaniy kompetensiyalarining shakllanganlik darajasiga bo‘g‘liq. Bu darajalarni shakllanishi va rivojlanishida pedagog-kadr quyidagi bosqichlardan o‘tishi shart:

1. O‘z-o‘zini tahlil qilish va zarur narsalarni anglash;
2. O‘zini rivojlantirishni rejalashtirish maqsad, vazifa belgilash;
3. O‘zini namoyon etish va kamchiliklarini tuzatish.

Ta’lim jarayonini sifat samaradorligini oshirishda pedagog-kadrning quyidagi kasbiy kompetensiyalariga egaligi alohida o‘rin tutadi:

- O‘quvchilarda motivatsiyani shakllantirish
- AKTni bilishi

- Ta'lim muhitiga yangilik kiritishi
- O'z fanini mukammal bilishi
- Xorijiy tillardan birini bilishi
- Pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarga ega bo'lish
- O'z ustida ishlash
- Ta'lim jarayonini rejalashtirish, baholash va qayta aloqani o'rnatish.

Xulosa o'rnida quyidagilarni aytish joiz, pedagog-kadrlarning kasbiy kompetentsiya darajasi:

- mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni
- yangi axborotlarni o'rganishni
- muhim ijtimoiy talablarni ang'lay olishni
- yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

Kasbiy kompetentsiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur ang'laydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi. Shundagina ta'lim samaradorligiga erishish kafolatlanadi.

## REFERENCES

1. Туракулова, Ф. А. (2016). Priority directions of development of pedagogical science. Учёный XXI века, (10 (23)), 58-59.
2. Туракулова, Ф. А., & Махмудова, О. Ю. (2014). Технология организации и проведения внеклассных мероприятий в период педагогической практики. Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования, (2 (5)), 268-273.
3. <https://psihdocs.ru/kompetenciya-nima-degani.html>
4. <https://moluch.ru/archive/333/74450/>